

Izboskan tumani

«06» «01» 2022 yil

Bizlarkim quyida imzo chekib o'zaro shartnoma tuzuvchilar bir tomondan «EPOCH PHARM» MCHJ nomidan R. Xaydarov kelgusida «Ta'minotchi» deb nomlanadi va ikkinchi tomondan РУССКАЯ ФИГУРОЧКА ФАЙВЭЛЛ nomidan uning rahbari А.И. РАКИШОВ kelgusida «Xaridor» deb nomlanib, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Ta'minotchi» «Xaridor»ning talabnomasi bilan zarur dori-darmonlar, tibbiy ash'yolarni sotadi. «Xaridor» esa olgan mahsulotlari uchun to'lovni «Ta'minotchi»ning bankdagi tegishli xisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2.

(so'mda, QQS siz)

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Стерильная вода п/б -	горя	20000	1000 =	20 000 000 =
2	булет ил-шонни				
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					
11					
12					
13					
14					
15					
Jami					20 000 000 =

Shartnomaning umumiy summasi: Ишхорида умумий сўм

## 2. MAHSULOTNING SIFATI

2.1 «Ta'minotchi» «Xaridor»ga O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yhatdan o'tgan, tibbiyotga ishlatishga ruhsat etilgan sifat, markirovka, o'rnamlar farmatsevtik va texnik talablariga javob beradigan xamda sifat sertifikatini yoki taxlil bayoniga ega bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlarni sotadi.

## 3. SHARTNOMA QIYMATI VA XISOB- KITOB TARTIBI

3.1. Xisob kitob «Xaridor» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli G'aznachilik tizimidan ro'yhatdan o'tgandan so'ng «Xaridor» mablag'ni 5 (besh) bank ish kunida yetkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasini 30% ni oldindan avans tariqasida «Ta'minotchi» ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. «Ta'minotchi» shartnomaning 5.3. bandiga asosan xar oyda belgilangan miqdorda mahsulotni yetkazib beradi.

3.4. «Xaridor» «Ta'minotchi» tomonidan jadval asosida yetkazib berilgan mahsulotni 70% to'lovini mahsulot yetkazib berilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni davomida «Ta'minotchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.5. Shartnomada ko'rsatilgan narxlar bozor munosabatlaridan kelib chiqqan xolda, xom-ashyo narxlarini hamda xom-ashyolarning yetkazib berilishi xarajatlarini ortishi, shuningdek xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan kurslarini ko'tarilishi natijasida, xar 3 (uch) oyda bir marotaba shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlar narxlarini qayta ko'rib chiqiladi va mahsulot narxlarini o'zgartiriladi. Narxdagi o'zgarishlar tomonlar o'rtasida tasdiqlangan qo'shimcha kelishuv orqali amalga oshiriladi.

## 4. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1 «Ta'minotchi» quyidagi huquqlarga ega.

- Yetkazib beriladigan mahsulotni «Xaridor» tomonidan oldindan xaq to'lanishi va tegishli qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzil-kesil xisob kitob qilishni byudjet tashkilotidan talab qilish;

- Berilgan buyurtmaga muvofiq yetkazib beriladigan mahsulotni qabul qilishni asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini byudjet tashkilotidan talab qilish;

4.2. «Ta'minotchi» quyidagilarga majbur:

- «Xaridor»ga mahsulotni mazkur shartnomaga asosan belgilangan muddatlarda sifat va miqdorida yetkazib berish;

- Agar mahsulotni yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa byudjet tashkilotning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklar 3-kun muddatda bepul tuzatib berish;

4.3. «Xaridor» ning huquqlari:

- Yetkazib beruvchidan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

-Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma asosida beriladigan buyurtmaga muvofiq tegishli sifat assortimentdagi mahsulotni yetkazib berishini talab qilish;

-Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini yetkazib beruvchidan talab qilish;

4.4. «Xaridor» majburiyatlari:

-O'z buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan mahsulotni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

-Shartnomada ko'rsatilgan narxlar bozor munosabatlaridan kelib chiqqan xolda, xom-ashyo hamda xom-ashyolarning yetkazib berilishi xarajatlarini ortishi natijasida shartnomada belgilangan mahsulotlar narxlarini o'zgartirgan xolda «Ta'minotchi» tomonidan yetkazib beriladigan mahsulotlarni qabul qilish;

#### 5. SHARTNOMANING BAJARILISHI

5.1. Shartnoma qonun xujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi shart. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa shartnoma bajarilgan xisoblanadi.

5.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Qonun xujjatlarda belgilangan xollar bundan mustasno.

5.3. «Ta'minotchi» mahsulotlarni «Xaridor»ga o'zaro tasdiqlangan va mazkur shartnomaning bir qismi xisoblangan, yil yakuniga qadar oyma-oy taqsimlangan "yetkazib berish jadvali"ga asosan yetkazib beradi.

5.4. «Xaridor»ning roziligi bilan mahsulot muddatdan oldin yetkazib berilishi mumkin.

5.5. «Xaridor» yetkazib berilgan sifatsiz mahsulotni qabul qilishni rad etishga haqli.

5.6. Yetkazib berilgan mahsulot bevosita «Xaridor» ning ma'sul xodimi tomonidan xisob-fakturaga asosan qabul qilinadi.

5.7. «Xaridor» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud mahsulotning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda «Ta'minotchi»ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 10 kun oldin xabardor qiladi.

#### 6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1 Yetkazib beriladigan mahsulot sifati, miqdori «Ta'minotchi» tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirish xollari aniqlangan taqdirda «Ta'minotchi» yetkazib berilayotgan mahsulotning sifatini shuningdek miqdorini xisobga olgan xolda qayta xisob-kitob qiladi va xisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari «Xaridor»ga noto'g'ri xisob-kitob qilingan summaning 10 % miqdorida penya to'laydi.

6.2 Agar yetkazib berilgan mahsulotning sifati, assortimenti, navlari, standart texnik shartlar, talablarga, namunalarga yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda aybdor tomon yetkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan mahsulot qiymatining 10 % miqdorida penya to'laydi.

6.3. Mahsulotni yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan taqdirda «Ta'minotchi» «Xaridor»ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiy bajarilmagan qismining 0,02 % miqdorida penya to'laydi. Biroq, bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 10 % dan ortiq bo'lmasligi kerak.

6.4. Yetkazib berilgan mahsulot uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda «Ta'minotchi» «Xaridor»ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,02 % miqdorida penya to'laydi, biroq kechiktirilgan to'lov summasining 10% dan ortiq bo'lmasligi kerak.

6.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

#### 7. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra mustaqil ravishda ular sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

7.2. Tomonlarning kelishmovchiliklari va nizolarni xal etish, bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

7.3. Shartnoma shartlari buzilib, o'zaro kelishilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida (yoki arbitraj) orqali xal qilinadi.

#### 8. QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Agarda bir tomondan shartlarni bajara olmasligi yoki mahsulot sifati miqdori va summasi to'g'risidagi o'zgarish bo'lsa, oldindan o'zaro kelishuvga asosan o'zgartirish kiritiladi.

8.2. Fors-mojor xolatida shartnoma buzilsa, o'zaro kelishib olinadi.

8.3. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkisi xam yuridik jixatidan teng kuchli xisoblanadi.

#### 9. SHARTNOMA MUDDATI

9.1. Shartnoma tomonlar imzolab, xududiy G'aznachilik bo'limida ro'yhatga olingan kundan kuchga kirib, 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi xam xuquq jixatidan teng kuchli xisoblanadi.

#### 10. TOMONLAR BANK REKVIZITLARI VA MANZILGOXLARI.

«TA'MINOTCHI»


«XARIDOR»


Nomi: «EPOCH PHARM» MCHJ  
Manzili: Izboskan tuman Poytug' shaxri  
Mustaqillik ko'chasi 1-uy  
X/r: 20208000700494429004

Bank nomi: "Ipotekabank" Andijon vil. filiali  
MFO: 00059 INN: 303433029  
OKED: 14190

Rahbar:  R. Xaydarov

Nomi: РШТЕЙМ АНДИЖОН ФИЛИАЛИ  
Manzili: Анд.ш. Пушкин к. 56. Тел./Факс 228-29-09  
ИНН: 200237030 ОКОНХ: 91511  
Ш/ХВ: 109021860034017073102054001

X/r:   
Bank nomi: Уш. Уст. Мелия Вазирлиги Газначилиги  
MFO: 23402000300100001010 МФО: 00014  
MБББ ХККМ Тошкент шаҳар ИНН: 201122019

OKED:   
Rahbar:  R. M. Komilov  
FIO

